

VILOYAT HOKIMINING TOPSHIRIG‘IDAN SO‘NG...



VILOYAT HOKIMINING TOPSHIRIG‘IDAN SO‘NG...

Davlatimiz rahbarining topshirig‘iga asosan yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini Termiz shahrida namunali tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, xatlovlar jarayonlarida aniqlangan muammoli yoshlar sektorlar va tashkilotlar rahbarlariga biriktirilgan.

Bugun, viloyat hokimi Ulug‘bek Qosimov Termiz shahar tibbiyot birlashmasida sektor rahbarlariga biriktirilgan yoshlar bilan bo‘lgan uchrashuvda, sektorlar, mas‘ul tashkilot rahbarlari hamda oliy ta‘lim muassasalari rektorlariga yoshlar bilan ishlashni yana-da jadallashtirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, hayotda o‘z yo‘lini topishda ko‘maklashish bo‘yicha manzilli ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish yuzasidan tegishli ko‘rsatma va topshiriqlar bergan edi.

Mas'ullar tomonidan bugunning o'zida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Yoshlar markazida og'ir toifadagi va ijtimoiy ko'makka muhtoj yoshlar va ularning ota-onalari bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda shahar hokimi O'ktam To'rayev, sektor rahbarlari, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi rahbari, oliy ta'lim muassasalari rektorlari, volontyor yoshlar hamda yoshlarga birlashtirilgan tashkilot rahbarlari ishtirok etishdi.

Uchrashuvda har bir mahalladan yoshlarning qiziqish va xohish istaklari asosida, oliy ta'lim muassasalarida til va boshqa fanlar hamda IT sohasi bo'yicha o'quv kurslariga bepul o'qitish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida sport to'garaklariga jalb etish, shuningdek, kasbga o'rgatish ishlarini ertadan tashkil etilishiga kelishib olindi.

Image not found or type unknown

O'z o'rnida mazkur ishlarni tizimli tashkil etish bo'yicha Termez shahar hokimligi, yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi va oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilaridan iborat mas'ullar birlashtirildi.






Image not found or type unknown







Image not found or type unknown

